

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
2.	“1U CubeSat” sun’iy yo‘ldoshini yaratish orqali kosmik muhandislik, sun’iy yo‘ldosh texnologiyalari va kosmik tadqiqotlar bo‘yicha milliy kompetensiyalarni rivojlantirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: -1U CubeSat formatidagi ta’limiy-tadqiqot sun’iy yo‘ldoshini yaratish bo‘yicha milliy muhandislik platformasi ishlab chiqiladi; -sun’iy yo‘ldoshning bort kompyuteri, elektr ta’minoti tizimi, aloqa moduli, foydali yuklama va telemetriya tizimlarini loyihalash hamda integratsiya qilish metodologiyasi yaratiladi; -tanlov asosida saralangan 50 nafar ishtirokchi tomonidan 1U CubeSat sun’iy yo‘ldoshi yig‘ilib, uchuv oldi sinovlardan o‘tkaziladi hamda orbitaga chiqariladi; -CubeSat 1U Sun’iy yo‘ldosh uchun SatNogs Yer usti qabul qilish stansiyasi tashkil etiladi. -orbitadagi sun’iy yo‘ldoshdan telemetriya ma’lumotlarini qabul qilish, qayta ishlash va tahlil qilish bo‘yicha amaliy tajribalar amalga oshiriladi; -CubeSat platformasida atmosfera parametrlari, radiatsiya muhiti, navigatsiya yoki aloqa texnologiyalarini sinovdan o‘tkazishga mo‘ljallangan foydali yuklamalar bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar olib boriladi; -kosmik sanoat uchun amaliy tajribaga ega yosh muhandislar, konstruktorlar va tadqiqotchilarni tayyorlash mexanizmi yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.

